

ISSN:2181-1458

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI  
ILMIY AXBOROTNOMASI**

**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО  
ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА**

**SCIENTIFIC BULLETIN OF  
NAMANGAN STATE UNIVERSITY**



[namdu.uz](http://namdu.uz) [ilmiy@inbox.uz](mailto:ilmiy@inbox.uz)

[Namdu\\_ilmiybolim](#)

ISSN:2181-0427

2022

6



**Бош муҳаррир:** Наманган давлат университети ректори С.Т.Тургунов

**Масъул муҳаррир:** Илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор М.Р.Қодирхонов

**Масъул муҳаррир ўринбосари:** Илмий-тадқиқот ва илмий-педагогик кадрлар тайёрлаш бўлими бошлиги Д.Дехқонов

### ТАҲРИРҲАЙЪАТИ

**Физика-математика фанлари:** акад. С.Зайнобиддинов, акад. А.Аъзамов, ф-м.ф.д., доц. М.Тўхтасинов, ф-м.ф.д., проф. Б.Саматов, ф-м.ф.д., доц. Р.Хақимов, ф-м.ф.д. М.Рахматуллаев.

**Кимё фанлари:** акад.С.Рашидова, акад. А.Тўраев, акад. С.Нигматов, к.ф.д., проф.Ш.Абдуллаев, к.ф.д., проф. Т.Азизов.

**Биология фанлари:** акад. К.Тожибаев, акад. Р.Собиров, б.ф.д. доц.А.Баташов, б.ф.д. Н.Абдурахмонов.

**Техника фанлари:** - т.ф.д., проф. А.Умаров, т.ф.д., проф. С.Юнусов.

**Қишлоқ хўжалиги фанлари:** – г.ф.д., доц. Б.Камалов, қ-х.ф.н., доц. А.Қазақов.

**Тарих фанлари:** – акад. А.Асқаров, с.ф.д., проф. Т.Файзуллаев, тар.ф.д, проф. А.Расулов, тар.ф.д., проф. У.Абдуллаев.

**Иқтисодиёт фанлари:** – и.ф.д., проф.Н.Махмудов, и.ф.д., проф.О.Одилов.

**Фалсафа фанлари:** –ф.ф.д., проф. М.Исмоилов, ф.ф.н., О.Маматов, PhD Р.Замилова.

**Филология фанлари:** – акад. Н.Каримов, фил.ф.д., проф.С.Аширбоев, фил.ф.д., проф. Н.Улуқов, фил.ф.д., проф. Ҳ.Усманова. фил.ф.д.,проф. Б.Тухлиев, фил.ф.н, доц.М. Сулаймонов.

**География фанлари:** - г.ф.д., доц. Б.Камалов, г.ф.д., проф.А.Нигматов.

**Педагогика фанлари:** - п.ф.д., проф. У.Иноятгов, п.ф.д., проф. Б.Ходжаев, п.ф.д., п.ф.д., проф. Н.Эркабоева, п.ф.д., проф.Ш.Хонкелдиев, п.ф.д., проф Ў.Асқарова, п.ф.н., доц. М.Нишонов, PhD П.Лутфуллаев.

**Тиббиёт фанлари:** – б.ф.д. Ғ.Абдуллаев, тиб.ф.н., доц. С.Болтабоев.

**Психология фанлари** – п.ф.д.,проф З.Нишанова, п.ф.н., доц. М.Махсудова

**Техник муҳаррир:** *Н.Юсупов*

**Таҳририят манзили:** Наманган шаҳри, Уйчи кўчаси, 316-уй.

**Тел:** (0369)227-01-44, 227-06-12 **Факс:** (0369)227-07-61 **e-mail:** [ilmiy@inbox.uz](mailto:ilmiy@inbox.uz)

Ушбу журнал 2019 йилдан бошлаб Ўзбекистон Республикаси Олий аттестация комиссияси Раёсати қарори билан физика-математика, кимё, биология, фалсафа, филология ва педагогика фанлари бўйича Олий аттестация комиссиясининг диссертациялар асосий илмий натижаларини чоп этиши тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

“НамДУ илмий ахборотномаси–Научный вестник НамГУ” журнали Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлигининг 17.05.2016 йилдаги 08-0075 рақамли гувоҳномаси ҳамда Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги (АОКА) томонидан 2020 йил 29 август куни 1106-сонли гувоҳнома га биноан чоп этилади. “НамДУ Илмий Ахборотномаси” электрон нашр сифатида ҳалқаро стандарт туркум рақами (ISSN-2181-1458)га эга НамДУ Илмий-техникавий Кенгашининг 10.06.2022 йилдаги кенгайтирилган йигилишида муҳокама қилиниб, илмий тўплам сифатида чоп этишига рухсат этилган (**Баённома № 6**). Мақолаларнинг илмий савияси ва келтирилган маълумотлар учун муаллифлар жавобгар ҳисобланади.



13.00.00

**ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ**  
**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ**  
**PEDAGOGICAL SCIENCES**

115	<b>Astronomiya fanini o'qitishda fanlararo integratsiyaning o'rni va ahamiyati</b> Barakayeva S.T .....	599
116	<b>Радиоактив емирилиш қонуни" мавзусини интегратив ёндашув асосида ўқитиш методикаси</b> Самандаров Л.Қ .....	604
117	<b>Дифференцированный подход к учащимся при обучении немецкому языку</b> Нарматова А.П .....	611
118	<b>Информатика дарсларида лаборатория машғулотларининг аҳамияти</b> Абдуқодирова П.Т .....	615
119	<b>Академик литсей о'қувчиларининг коммуникатив компетенцияларини оширishда замонавий ахборот технологияларидан фойдаланишнинг назарий асослари</b> G'iyasov R.Z .....	619
120	<b>Антропонимлар ва антортопонимларнинг ўзига хос хусусиятлари</b> Жумаева Д.Б .....	622
121	<b>The critical period hypothesis and age in language learning</b> Alimova E.N., Yuldasheva M.B .....	627
122	<b>Имконияти чекланган талабаларни пара волейболга ўргатиш ва тезкор-куч сифатларини ривожлантиришда махсус машқларни қўлланилиши</b> Давлатова Л.Т .....	630
123	<b>Chet tillarni o'qitishda talabalarni kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish</b> Jabborova D.Z .....	637
124	<b>Nemis tili darsida o'qituvchiga xos pantomimika hamda pantomimik harakatlar yordamida muloqot kompetensiyasini rivojlantirish usullari xususida</b> Umirzakova F.I., Toshpulatov Sh.X .....	642
125	<b>Совершенствование тренировочного процесса легкоатлетов в группе начальной подготовки джусш</b> Гофуров Ш.Х .....	647
126	<b>Geoekologiya fanining rivojlanishi</b> Namroqulova M .....	653
127	<b>Курсантларга араб тилини ўқитишда лингвомаданий компетенцияни шакллантиришдаги интерференциялар</b> Хасанов И .....	657
128	<b>Ўзбекистонда бо'лажак о'қитувчиларда коммуникатив компетенциясини ривожлантиришнинг yangi bosqichi</b> Eshboyev J .....	661



129	<b>Jismoniy tarbiya jarayonlarida ma'naviy yetuklikni shakllantirishning ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish – davr talabi</b> Xamraliyev M.M., Sulaymonov E.R .....	665
130	<b>O'quvchilarda tanqidiy fikrlash jarayonlarining samaradorligini oshirishning pedagogik usullari</b> Maxammatova M.J .....	669
131	<b>«Umumiy va noorganik kimyo» fanini innovatsion ta'lim muhitida o'qitish aspektlari (Texnika oliy o'quv yurti misolida)</b> Haydarova Ch .....	674
132	<b>Geogebra dasturi yordamida chizma geometriya va muhandislik grafikasi fanidan taqdimot yaratish</b> Shonazarov A.O .....	679
133	<b>Allomalarning jismoniy tarbiya to'grisidagi qarashlari</b> Ochilov E .....	684
134	<b>Бўлажак мактабгача таълим ташкилоти педагог ходимларининг бадиий-эстетик компетенциясини ривожлантириш мазмуни</b> Асқаров Б.Б .....	687
135	<b>Texnologiya darslarida raqamli transformatsiyalashni o'ziga xos xususiyatlari</b> Ikromova M.X .....	690
136	<b>o'quv topshiriqlaridan foydalanish metodikasiga doir amaliy yondashuvlar</b> Axmedova M.E., Fayzullayev S.I .....	696
137	<b>Maktab o'quvchilarida tadbirkorlik qobiliyatlarini shakllantirish</b> Nabiyev G'.A .....	701
138	<b>Implementing clt method in esp through modern techniques and teaching tools</b> Raxmanova D.A .....	704
139	<b>Raqamli texnologiyalar asosida interaktiv test nazoratlari yaratish metodikasi</b> Abduev Sh .....	710
140	<b>Zamonaviy mutaxassis tayyorlashda kasbiy kompetensiya tushunchasi</b> Sharipova S.A .....	722
141	<b>Uzluksiz ta'lim tizimida ingliz tilini o'qitishda o'quv materiallarini tizimlashtirishning didaktik usullari</b> Akramova D.Sh .....	725
142	<b>How to develop metacognitive reading strategies to improve adult literacy</b> Latipov B.B .....	729
143	<b>Psychodiagnostics - as an important aspect of psychological service</b> Kasimova N.I .....	734
144	<b>Талабалар ижтимоий компетентлигини шакллантиришнинг айрим масалалари</b> Нуриддинов М.А .....	737



## O'QUV TOPSHIRIQLARIDAN FOYDALANISH METODIKASIGA DOIR AMALIY YONDASHUVLAR

TTA O'zbek va xorijiy tillar

kafedrasini dotsent

Axmedova Maloxat Ergashevna

o'qituvchi

Fayzullayev Sarvar Ibrohim o'g'li

telefon: +99893 004-24-71

[axmedovamaloxat1924@gmail.com](mailto:axmedovamaloxat1924@gmail.com)

**Annotatsiya:** *Filologik ta'limda talabalarning mustaqil oquv topshiriqlarini rivojlantirishda kredit-modul` tizimiga o'tishning amaldagi holati va istiqbollari, oliy ta'lim muassasalarini ilg'or jahon tajribalari asosida kredit-modul tizimining tamoyillari, ta'lim oluvchi, ta'lim natijalarini tan olinishi. Ta'lim traektoriyasini mustaqil shakllantirish imkoniyatini yaratilishi va akademik mobillik, baholarning to'planib borilishi, professor-o'qituvchi, talabalarning fanga qiziqishi, hamda aniq belgilangan baholash tizimini joriy etilishi maqsadga muvofiq ekanligi asoslab berilgan.*

**Калит сўзлар:** *олий таълим, ўқув топшириқлари, машқлар, савол, матн устиди ишлаш, кўникма ва малакалар, машқ турлари, ўқув топшириқларининг аҳамияти*

**Аннотация:** *Современное состояние и перспективы перехода на кредитно-модульную систему развития устной компетенции студентов высшего филологического образования, принципы кредитно-модульной системы вузов на основе передового зарубежного опыта, признания результатов обучения. Обоснована академическая мобильность, накопление оценок, заинтересованность преподавателей и студентов в науке, а также введение четко определенной системы оценивания.*

**Keywords:** *higher education, study assignment, exercise, question, work on text, skills and qualifications, types of exercises, importance of study assignments*

**Annotation:** *The current state and prospects for the transition to a credit-modular system for the development of oral competence of students of higher philological education, the principles of a credit-modular system of universities based on advanced foreign experience, recognition of learning outcomes. Substantiated are academic mobility, the accumulation of grades, the interest of teachers and students in science, as well as the introduction of a well-defined assessment system.*

**Ключевые слова:** *высшее образование, учебное задание, упражнение, вопрос, работа над текстом, навыки и квалификации, виды упражнений, важность учебных заданий*

### **Kirish (Introduction)**

O'zbek tilining davlat tili sifatida maqomini oshirish, milliy ma'naviyatimizni yuksaltirish va yoshlarda o'zbek tiliga bo'lgan yuksak hurmatni shakllantirish maqsadida muhtaram Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev tomonidan "O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida" Qonun qabul qilinganining o'ttiz yilligini keng nishonlash to'g'risida" 2019-yil 4-oktabrda PQ-4479-sonli qarori hamda "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 21-oktabrda PF-5850-sonli Farmoni



imzolandi. Prezidentimiz tomonidan 21 oktyabr sanasi "O'zbek tili bayrami kuni" deb e'lon qilindi. "Xalqimizning ko'p asrlik madaniy, ilmiy-ma'rifiy va badiiy tafakkuri, intellektual salohiyatining yorqin va bebaho mahsuli bo'lgan o'zbek tili jahondagi boy va qadimiy tillardan biridir. O'zbekistonda 1989-yil 21-oktabrda el-yurtimiz asrlar davomida orzu qilib, intilib va kurashib kelgan davlat tili haqidagi qonunning qabul qilinishi mamlakat suvereniteti va mustaqilligi sari qo'yilgan dastlabki dadil qadam edi. Aynan ana shu tarixiy hujjatga binoan o'zbek tili mustahkam huquqiy asos va yuksak maqomga ega bo'ldi.

Istiqlol yillarida ona tilimiz tom ma'noda davlat tiliga aylanib, xalqimizni yurtimizda erkin va ozod, farovon hayot qurishdek buyuk marralarga safarbar etadigan beqiyos kuch sifatida maydonga chiqdi. Bugun O'zbekistonimiz «Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari» degan bosh tamoyil asosida taraqqiyotning yangi, yanada yuksak bosqichiga ko'tarilmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlar jarayonida davlat tilining hayotimizdagi o'rni va nufuzi tobora oshib bormoqda. O'zbek tili siyosiy-huquqiy, ijtimoiy iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy jabhalarda faol qo'llanib, xalqaro minbarlarda baralla yangramoqda. Xorijiy mamlakatlarda tilimizga e'tibor va uni o'rganishga qiziqish kuchaymoqda. Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o'z milliy manfaatlarini ta'minlash, bu borada avvalo o'z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir" - deyiladi farmonda. Yer yuzidagi millat va elatlar 7000 tilda so'zlashadilar. Lekin shu tillar orasida 200 tilga davlat tili maqomi berilgan, xolos. Shu jumladan, o'zbek tili ham davlat tili sifatida tan olingan. Shu boisdan ham qudratli va barhayot ona tilimiz bilan faxrlanishga haqlimiz. Muxtasar aytganda, har birimiz davlat tiliga bo'lgan e'tiborni mustaqillikka bo'lgan e'tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni ona Vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz lozim. Bu oliyjanob harakatni barchamiz o'zimizdan, o'z oilamiz va jamoamizdan boshlashimiz, ona tilimizga, urf-odat va qadriyatlarimizga hurmat, Vatanga mehrimizni amaliy faoliyatda namoyon etishimiz kerak, - deb ta'kidladi Prezidentimiz o'z ma'ruzasida. Darhaqiqat, Farmon ijrosini ta'minlashda ona tilimiz obro'sini oshirish va uning ahamiyatini yuksaltirish borasida hali ko'p ishlar qilishimiz lozim. Yoshlarimiz bugungi kunda o'z ona tilimiz bilan bir qatorda ko'plab chet tillarni o'rganmoqda. Globallashuv jarayonlarida milliy tilimizning sofliğini saqlash, uning lug'at boyligini oshirish, turli sohalarida tilimizga chet tillardan kirib kelayotgan atamalarning o'zbekcha muqobillarini yaratish va iste'molga kiritish vazifalari turibdi.

O'quv topshiriqlari ustida ishlashda metodik yondashuvlar nazariyasi va amaliyotiga e'tibor qaratamiz.

### **Tadqiqot metodologiyasi** (Research Methodology)

Har bir metodikaga doir tadqiqotning asosini o'quv topshiriqlari tashkil etadi. Ona tili ta'limida keyingi bir asr davomida ko'plab tadqiqotlar olib borildi. Jadidlar boshlab bergan ta'limning mazmuni o'zida o'zbek tiliga xos milliylikni qamragan edi. Jadidlarning sa'y-harakatlari bilan yaratilayotgan, o'z davrida sekin-asta shakllanayotgan milliy ruhda "Ona tili" darsliklari o'z o'rnini 1939 yilga kelib A.G'ulomov ta'kidlaganidek [1,181]. 1938 yilda (S.Barxudarov va Dosichevalarning rus maktablari uchun "Rus tili" darsligi stabil qo'llanma sifatida qabul qilingach), o'zbek maktablari uchun ham keyingi yillarda til me'yorlarini belgilashda nazariy asos vazifasini o'tagan Olim Usmon va Barot Avizovlarning to'liqsiz o'rta va o'rta maktablar uchun tavsiya etilgan darsligi egalladi. Keyinchalik professor A.K.Borovkov rahbarligida tuzilgan darsliklar [2,121]. oldingilariga nisbatan ancha mukamallikka egaligi bilan

ajralib turadi.

E'tiborli jihati shundaki, mazkur darsliklar mazmuni keyinchali oliy ta'lim darsliklariga ko'chdi, o'zbek tili grammatikasining asosiy qismiga aylandi. Yigirmanchi yillarning boshlarida yaratilgan o'zbek tili darsliklari tarkibida o'quv topshiriqlari mavjud emas edi. Keyinchalik A.Borovkov boshchiligida 1950 yillarda yaratilgan darsliklarda o'quv topshiriqlari kiritila boshlandi. Ammo, oliy ta'lim darsliklarida mashqlarga o'rin ajratilmagan. O'zbek tili o'qitish metodikasi darsliklarida ayrim o'quv topshiriqlari bor, o'quv qo'llanmalarda keyingi yillarda qat'iy tartibda kiritildi. Uzoq yillar oliy ta'lim darslik va qo'llanmalarida o'quv topshiriqlaridan umumli foydalanilmadi. Bu holat o'zbek adabiy talaffuz me'yorlarining talabalar tomonidan yetarlicha o'zlashtirilmay qolishiga olib keldi. Ona tili ta'limi tarixiga nazar tashlasak, bunday mashqlar o'zbek tili fan sifatida shakllangan dastlabki yillarda (1930–1940) chop etilgan darsliklarda ham mavjud bo'lmagani yuqorida ta'kidlandi. [3,149].

#### **Tahlil va natijalar** (Analysis and results)

Metodist G'.Hamroev tadqiqotlarida o'quv topshiriqlari umumiy o'rta ta'lim tizimi doirasida o'rganib chiqilgan. Bu borada uning o'zbek tili o'qitish metodikasida mashq va topshiriqlar vazifa jihatidan farqlanmaydi, buning natijasida o'quvchilarda nutqiy ko'nikmalar to'laqonli rivojlanmayapti [4,197], degan fikriga ko'shilish mumkin. Darhaqiqat, oliy ta'lim darslik va qo'llanmalarida ham o'quv topshiriqlari maxsus o'rganilmagan, savolni topshiriqdan, topshiriqni esa mashqdan farqlab bo'lmaydi. "O'zbek tilining izohli lug'ati" da mashq atamasiga shunday ta'rif berilgan: "**Mashq 1.** [arabcha. –husnixat, rasm chizish uchun namunalar] biror faoliyatni puxta o'rganish, malaka hosil qilish uchun bajariladigan ish, tayyorgarlik mashg'uloti. *Harbiy mashq. Mashq qilmoq. Siddiqjon ko'kragini sandalga berib, xat mashq qilar, Kanizak uning ro'parasida kitob o'qib o'tirar edi. A. Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari. – Ish yomon, – dedi kelgan militsionerlar, – ko'p mashq ko'rmagan, hali miltiq otishni bilmaydigan militsionerlar, qo'lidan nima kelar edi. S. Ayniy, Qullar.* 2. Ma'lum maqsadda bajariladigan, qilinadigan muayyan ish, harakat. Imloga doir mashqlar. *Jismoniy mashqlar. Bolalar bir-birlarining qo'llarini ushlab, gimnastika mashqlarini yengil va chiroyli bajaradilar. Gazetadan.* [7,162].

"Pedagogika Ensiklopediyasi" da mashqqa berilgan ta'rifning ancha takomillashgan va ta'lim sohasiga moslashtirilgan shaklini ko'rish mumkin: Mashq (arabcha – husnixat, rasm chizish uchun namunalar) – biror faoliyatni puxta o'zlashtirish yoki sifatini yaxshilash maqsadida ko'p marta takrorlash. Mas., o'qish, yozish. Ta'limda ko'nikma va malakalar hosil qilishda muhim o'rin tutadi [7,223]. Topshiriq atamasiga "O'zbek tilining izohli lug'ati" da quyidagicha ta'rif berilgan: "**Topshiriq 1.** Kimsaning zimmasiga yuklatiladigan ish, vazifa. Hukumat topshirig'i. Topshiriq bermoq. *Tergovchi ham xit bo'ldi. Axir, u bu yerga o'ynagani kelmagan-ku. Maxsus topshiriq bilan oqni oqqa, qorani qoraga ajratgani kelgan.*" [5,181].

G'.Hamroev ta'kidlagani kabi har bir atama o'z mazmun-mohiyatiga ega. Ya'ni, *mashq muayyan harakatni, bir necha bor aynan takrorlash orqali shu mashg'ulotdan ko'zlangan ko'nikma va malakaga ega bo'lishni nazarda tutsa, topshiriq kishining, jumladan, o'quvchining zimmasiga biror mazmuni mustahkamlash maqsadida bir marta bajarish uchun beriladigan ish, vazifani anglatadi.*[8,19].

Demak, mashq – ko'nikma yoki malaka hosil qilish vositasi. Topshiriq esa ma'lumotlarni xotiraga kirituvchi qurilmaga o'xshaydi. U yo'naltiruvchi xususiyatga ega. Topshiriq orqali o'quvchini fikrlashga, mustaqil ishlashga o'rgatish mumkin. Zero, mashqlar ham, topshiriqlar ham "Ona tili" darsliklarining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Nazariy ma'lumotlar, ya'ni grammatik qoidalar o'quvchida belgilangan mavzu doirasida bilim, tushuncha hosil qiladi. Ta'lim mazmunida o'quvchi egallashi ko'zda tutilgan ko'nikma va malakani, asosan, mashqlar



shakllantiradi. Topshiriqlar bu o'ringda ko'proq o'quvchi bilimni boyitishga xizmat qiladi.

Oliy ta'lim tizimida ona tili o'qitish metodikasiga doir o'quv metodik adabiyotlarida o'quv topshiriqlari an'anaviy shaklda quyidagicha keltiriladi:

Amaliy ish. Savol va topshiriqlar.

1. O'zbek tilida so'z oxirida qanday tovush o'zgarishlari yuz berishi mumkin?

2. Qaysi tovushlar so'z oxirida jarangsizlanadi?

3. Qaysi tovushlar talaffuzda so'z oxirida tushib qoladi?

4. Talaffuz qilinmasa-da, imloda yoziladigan harflar ishtirok etgan so'zlarga misollar keltiring. (pas(t), sus(t), juf(t)...

5. Mazkur harflarning mavjudligini qanday aniqlaysiz? (Toshkentimiz jamoli, mol go'shti kabi) [9,174].

Qo'llanma mualliflari yuqoridagi kabi topshiriqlarni bajarishda talabalar til materiallarini kuzatadilar, so'zlarni qiyoslaydilar, o'xshash va farqli tomonlarini sharhlaydilar. Mazkur jarayon faqat imlo savodxonligining shakllanishini emas, balki tovush va harflarni farqlash, so'z ma'nosining o'zgarishida to'g'ri talaffuzning o'rni va ahamiyatini tushunib yetishga sabab bo'ladi, talaba so'z boyligining oshishiga, so'zlarni nutqiy vaziyatga qarab to'g'ri tanlash, o'z o'rnida to'g'ri qo'llashga ham o'rgatadi.

1-jadval

No	ona tili o'qitish metodikasi	Mustaqil o'quv topshiriqlari ustida ishlash
1.	Lingvodidaktika	Ona tilining o'qitish jarayonida didaktik yomndashuv
2.	Ona til metodikasi	Tilning metodik jarayonlarini o'rganish mexanizmi
3.	Tilning lingvistik xususiyatlari	Tilning metodik lingvistik xususiyatlarini tahlil etish

Biroq bugungi ona tili o'qitish metodikasi o'quvchilarni, shu jumladan, talabalarni matn bilan ishlash, turli uslublardagi matnlarni o'qib tushuna olish, matndan anglaganlarini yozma va og'zaki bayon qilib bera olish ko'nikmalariga ega bo'lishi ko'zda tutilmoqda. O'zbek tili o'qitish metodikasi darsligida talabalarning bilim va malakalarini sinash taqdim etilgan savol va topshiriqlarni ham pragmatik o'quv topshiriqlari bilan almashtirish vaqti kelgan: Savol va topshiriqlar:

1. Metodika fani nimani o'rganadi?

2 Metodikaning o'quv predmeti sifatidagi o'ziga xosliklarini izohlab bering.

3 Uning fan sifatidagi xususiyatlarini tushuntiring.

4 O'zbek tili o'qitish metodikasi fanining boshqa fanlar (fonetika, grafika, hozirgi o'zbek adabiy tili, shevashunoslik, tilshunoslik asoslari)dan farqini tushuntirib bering.

5 Aniq misollarda umumiy, xususiy hamda maxsus metodikaning o'ziga xosliklarini izohlab bering. [10,124].

Bu o'ringda o'zbek tili o'qitish metodikasi bilan til sathlari o'rtasidagi farqlarni solishtirish bo'yicha berilgan topshiriq o'zini oqlamasligi mumkin. Uning fan sifatidagi ahamiyati haqida fikr yuritish o'rniga xususiyatlarini so'rash ahamiyatsizroqdir. Ona tili o'qituvchilari tayyorlash ko'zda tutilgan paytda ularning kasbiy mahoratlarini oshirishga xizmat qiladigan o'quv topshiriqlar tuzish vaqti kelgan. Shu ma'noda, ona tili o'qitish metodikasi bo'yicha yaratiladigan kelgusi metodik adabiyotlarda buni, albatta, e'tiborga olish zarur





### **Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations)**

Xulosa o'rnida, shuni aytish mumkinki, o'zbek tili o'qitish metodikasi zamon talablariga javob berishi uchun barcha diqqatni nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratish lozim.

1.Bo'lajak ona tili va adabiyot o'qituvchilari talabalarriga tinglab tushunish, o'qib tushunish, gapirish va yozish ko'nikmalarini hosil qilishni o'rgatishi lozim.

2.Talabalarni nutqiy va lingvistik kompetensiyasini takomillashtirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish lozim.

3.O'quv topshiriqlar bilan mustaqil topshiriqlarni farqlash lozim.

4.Mustaqil o'quv topshiriqlar metodikasini amaliyotga tatbiq etyish lozim.

Shuning uchun har bir bo'lajak ona tili va adabiyot o'qituvchisi matn ustida ishlashni bilishi, bir fikrni turli shakllarda bera olishni o'rganishi, eng asosiysi, o'quv topshiriqlarini farqlay olishi, ulardan mashg'ulotlar davomida samarali foydalana olishi lozim. Mustaqil savol va topshiriqlar tuzishda fanlararo bog'lanishlarni e'tiborda tutish bilan birga, har bir dars mashg'ulotini uch maqsadga erishishga qaratilgan: o'quv materialini amaliy o'rgatish, o'quv materialini orqali tarbiyalash va o'tilgan mavzu doirasida savol-javob, mustahkamlash ya'ni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Ona tili ta'limida, asosan, grammatik bilimlarni rivojlantirish nazarda tutiladi, to'g'ri, grammatikasiz dars mashg'uloti ham, darslik ham bo'lmaydi, biroq me'yor darajasida bo'lishi kerak. Bugun o'quvchiga OTMga kirish uchun ona tili grammatikasidan taqdim etilayotgan test savollariga tadqiqotchi, tilshunoslar ham qoniqarli javob bera olmaydi, chunki o'quv topshiriqlari noto'g'ri shakllantirilgan. Xullas, grammatika qoidalar emas, ona tilida matn bilan ishlashga o'tish, so'zning matndagi ma'no tovlanishlarini, talaffuzi va yozilishini, matn muallifi aslida nima demoqchiligini anglashga olib boruvchi savol va topshiriqlar tizimini yaratish, talabning adabiyotga mehr qo'yishini ta'minlaydi, ona tilning bo'y-u bastini ko'radi. Grammatik nazariyalar – qoliplardir, ona tili ularga sig'maydi. Biz tilning nutqiy imkoniyatlarini ko'rsatib berishimiz kerak, bu imkoniyatlar grammatika bilan o'lchanmaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1.Фулломов.А.Ф. //Ўзбекистон энциклопедияси.–Т., 1981. – 394-б.

2.Usman A., Avizov B. Ozbek tili grammatikasi. Birinci bolim. Fonetika va morfologiya.Toluqsiz orta va orta maktablar uchun darslik.–Т.: Ozdavnashr,1939. –235 b.

3.Боровков А., Фуломов А., Маърупов З., Шермухаммедов Т. Ўзбек тили грамматикаси. Етти йиллик ва ўрта мактабларнинг 5 – 6-синфлари учун дарслик. I қисм. Фонетика ва морфология. –Т.: Ўздавнашр, 1946 – 227-б.

4.Ramazan Q., Qajjumij X. Grammatik. Sarf. Orta maktablar ucun darslik. I qism. –Т.: Oquvpeddavnasr, 1937. –149 b.

5.Ғ.Ҳамроев Она тили ўқитишнинг самарали усуллари. Методик қўлланма. – Тошкент. Баёз. 2018. 197 б.

6.Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. 2-жилд.–Т.: ЎзМЭ, 2004. – 562-б.

7.Педагогика Энциклопедияси. 2-жилд. –Т.: Ж – М., 2012. – 223-б.

8.Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. –Т.: ЎзМЭ, 2004, – 150-б.

9.Ғ.Ҳамроев Она тилидан ўқув топшириқларини тузиш методикаси –Тошкент. Донишманд зиёси, 2021. 19-б.

10.То'хлиев, В. О'zbek tili o'qitish metodikasi / В. То'хлиев, М. Shamsiyeva, Т. Ziyodova ; red. Т. 11.R.Niyazmetova. - Toshkent : Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010 –184 b.